

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinasi” aksiyadorlik jamiyatida “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili” davlat dasturi bo‘yicha 2024-yilning IV-chorak
yakuni yuzasidan**
TAHLILIY MA’LUMOT

“Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili” respublika davlat dasturiining 48-maqсад, 13-bandida “Navoiy KMK” AJ ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolish” investitsiya loyihasini amalga oshirish hamda 61-maqсад, 94-bandida Respublika aholisining ichimlik suv ta’minoti darajasini oshirish vazifalari belgilangan edi. O’tgan davr mobaynida ushbu tegishli bandlar ijrosi bo‘yicha “NPKMK AJga talluqli ik yo‘nalishlari bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan:

1. Dasturda ko`zda tutilgan 2-ilova 13-band, ya`ni, “Navoiy KMK” AJ ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolish” investitsiya loyihasini amalga oshirish ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-avgustdagи 408/10-sonli qarori bilan loyihaning TIHK tasdiqlandi. Shuni alohida ta`kidlash joizki, mazkur investitsiya loyihasini amalga oshirilishdan asosiy maqsad - “NPKMK” AJning eskirgan texnologik uskunalar, tog‘-kon kompressorlar va qurilish mexanizmlarini bosqichma-bosqich zamonaviy texnologik talablarga javob beradigan va energiya tejamkor mexanizm va texnikalarga almashtirishdan iborat.

Bugungi kun holatiga jami 50 birlikda uskunalar va texnikalarga qiymati 82,6 mln.dollarlik shartnomalar imzolangan. Ushbu shartnomalar bo‘yicha 56,4 mln.doll to‘lovlar amalga oshirilgan.

Ayni kunda 1 dona ekskavator Xitoy davlatida ishlab chiqarish jarayonida. 1 dona WK-10 rusumli ekskavator Xitoy davlatida ishlab chiqarildi va temir yo‘l transporti ortish uchun tayyorlanayapti. Shuningdek, 5 dona yo‘lovchi vagonlari va 2 dona burg‘ulash uskanalari ishlab chiqarish jarayonida.

2 dona yuk ko‘tarish imkoniyati 90 tonna bo‘lgan kon avtosamosvallari yetkazildi, ayni kunda avtosamosvallarni yig‘ish va bojxona hujjatlarni rasmiylashtirish ishlari olib borilmoqda. 1 dona WK-10 rusumli ekskavator yetkazildi, ayni kunda ekskavatorni yig‘ish va bojxona hujjatlarni rasmiylashtirish ishlari olib borilmoqda.

Loyiha dorasida 3 dona zanjirli buldozerlar va 12 dona yuk ko‘tarish imkoniyati 90 tonna bo‘lgan kon avtosamosvallar yetkazib berildi va jami qiymati 23,2 mln.doll. bo‘lgan kon texnikalari foydalanishga topshirildi (kapital quyilmalar o‘zlashtirildi).

Imzolangan shartnomalar bo‘yicha yetkazib berilgan uskuna va texnikalar bosqichma – bosqich ishlab chiqarishga joriy etilmoqda.

Logistika bo‘yicha muammolar yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikda hal qilinmoqda.

2. Dasturda ko`zda tutilgan 61-maqсад, 94-bandda Respublika ahonisining ichimlik suv ta’minoti darajasini oshirish vazifasi belgilangan edi. Shu davrga qadar bu loyihaning moliyalashtirish manbai aniqlanib, 26 tozalash uskunasini urnatiladigan joy hamda 26 ta uskuna o‘rnatiladigan innovatsion hududlar belgilab olindi. Namuna sifatida NMZda 1 dona uskuna tayyorlandi. Uskunalarni o‘rnatish va xizmat qilish ishlari Xorazm kompaniyasi “Ecocompany” MCHJ tomonidan amalga oshirildi. Loyihani amalga oshirish uchin Innovatsion rivojlanish fondidan 3 mlrd. sum mablag‘ ajratildi.

Hisobot davrida belgilangan hududlarda 26 dona tozalash uskunasini o‘rnatildi. Qoroqolpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatidagi 15 tozalash uskunasini foydalanishga topshirish ishlari amalga oshirildi.